

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI TAKROR STILISTIK VOSITASINING IZOMORFIK VA ALLOMORFIK XUSUSIYATLARI TADQIQI

Sobirova Dilafruz Akrom qizi

Mirzo Ulug‘bek nomidagi

O‘zbekiston Milliy universiteti,

Xorijiy filologiya fakulteti, Xorijiy til va adabiyoti kafedrası

Annotatsiya: *Ushbu maqolada qo‘shma gaplar tarkibida ifodalangan takror stilistik vositasining o‘xshash, farqli va o‘ziga xos xususiyatlari tadqiqi ko‘rib chiqiladi, shuningdek, ularning umumlisoniy xususiyatlar misollar yordamida tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *sintaktik qurilma, stilistik figura, anafora, epifora, alliteratsiya, anadiplosis*

KIRISH

Ma‘lumki, har qanday til bosqichma-bosqich rivojlanish qonuniyatiga ko‘ra shakllanadi va taraqqiy etadi, shu jihatdan tilda kichik birlik o‘zidan kattaroq bo‘lgan birlikka qurilish materiali bo‘lib xizmat qiladi, xususan, fonema → morfema → leksema → frazema → sintaksema → tekstema). Mavjud barcha jonli tillar o‘z funksiyasini sintaksis sathida namoyish qiladi. Sintaksis hozirgi zamon tilshunosligida, asosan, ikkita universal birlik tiplari bilan ish ko‘radi, ularning struktural va semantik xususiyatlarini o‘rganadi. Sintaktik birliklar, jumladan, qo‘shma gaplar aniq konstruktiv va kommunikativ talablar asosida tuziladi.

H. Poutsma tomonida ilk marotaba “Composite”, ya’ni “Qo‘shma” so‘zi ham teng qo‘shma gaplar, ham murakkab qo‘shma gaplarni izohlash uchun umumiy atama sifatida qo‘llanilgan. Shuningdek, qo‘shma gaplarning hosil bo‘lishini rus olimi M.V.Lomonosov, qo‘shma gaplarni bog‘lanish usullariga ko‘ra tilshunos olim B.A.Ilish, qo‘shma gaplarni struktural semantik jihatdan N.Kirvolidze hamda qo‘shma gapning, jumladan, bog‘langan va bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarning ham tarkibiy qismlari struktur-sintaktik hamda mazmuni jihatlaridan bir-biri bilan aloqada bo‘lishi akademik V.V. Vinogradov va boshqalarning asarlarida tahlil etilgan.

Hozirgi kunda olib borilayotgan keng ko‘lamli tadqiqotlar tufayli jahon tilshunosligida, jumladan, o‘zbek tilshunosligida ham qo‘shma gaplarni o‘rganish yuzasidan katta yutuqlarga erishilib kelinmoqda. Ingliz va o‘zbek tillari sintaksisi borasida chet el va o‘zbek olimlari N.Xomskiy, R.Yakobson, V.Cheyf, G.Poutsma, Dj.Kerm, A.Garsiya, H.G‘oziyev, O‘.Q.Yusupov va G‘.Abdurahmonov kabilarning olib borgan ishlari tilshunoslar jamoatchiligi e’tiborini qozongan. Xususan, ingliz tilshunos olimi A.Garsiya “Qo‘shma gap o‘zida bir asosiy bosh bo‘lak va gapda element vazifasida qo‘llanuvchi bir yoki bir necha predikativ ergash qismlardan iborat” deya ta’kidlasa, O‘.Q.Yusupov qo‘shma gap haqida quyidagicha fikrni bildiradi: “Qo‘shma gaplar sodda gaplardan maqomi jihatidan

yuqori turuvchi, tarkibida kamida ikkita to'liq predikativli sintaktik struktura mavjud bo'lgan ma'no, shakli hamda intonatsiyasi jihatidan butun sintaktik birliklardir".

Ingliz, o'zbek va rus tilshunoslari tomonidan yozilgan ilmiy risolalarida ingliz tilining sintaktik birliklari: so'z birikmalari, sodda va qo'shma gap hamda tekstning stilistik jihatlari, ular tashiydigan stilistik yuklamalar (jumladan, takror, antiteza va xiazmlar) stilistik yuklamalari haqida bir qator qimmatli ma'lumotlarni topish mumkin. O'zbek tilshunos olimi A.Mamajonov o'zining bir qator e'tiborga molik jiddiy ilmiy ishlarida o'zbek tilshunosligida birinchi bor qo'shma gaplar orqali ifodalangan anafora, infora, epifora, gradatsiya, ellipsis, sanash usuli, antiteza, parallel konstruksiyalar, qo'shma gaplar sinonimiyasi kabi o'ta dolzarb masalalarni o'rta tashlagan va ularga o'ziga xos yondoshish orqali tegishli yechimlar bergan.

ASOSIY QISM

Qo'shma gap tarkibida qo'llaniluvchi stilistik vositalar bevosita qo'shma gap tarkibi yoki sintaksisiga ta'sir qiladi va ma'no kuchayishi yoxud ma'no sustlashishiga olib keladi, shuningdek, stilistik vositalar uslubiy bo'yoqdorlikni oshiribgina qolmay, balki ma'noni ochib berishga ham xizmat qiladi. Jumladan, takror stilistik vositasining asosiy vazifasi muallif nutqini ta'sirchan etish, fikrni konkretlashtirish va eng muhimi, unga tinglovchi yoki o'quvchini ishontirish kabi xususiyatlarni ifodalashdan iborat. Takror keng ko'lamli fenomena bo'lib, turli janrlar matnida uchraydi. Takror, asosan, stilistik figura bo'lib, poetik va publitsistik asarlar tilida eng ko'p qo'llaniladigan sintaktik-stilistik vosita hisoblanadi. Takror stilistik vositasining tinglovchiga ta'siri yuqori bo'lib, chog'ishtirilayotgan tillarda nutqning ta'sirchanligini oshirishga yordam beradi, shuningdek, so'z ritmini yanada kuchaytirish va tinglovchi e'tiborini aniq ifoda etilayotgan fikrga qaratish imkonini beradi. Takror – bu voqelikning yetarlicha to'lishi sharoitida tovushlarni, so'zlarni, morfemalarni, sinonimlarni yoki sintaktik tuzilmalarni takrorlashdan iborat nutqning shakli: "Ular barabanlarni urishdi, barabanlarni urishdi! Qahramonlarga shon-sharaflar! Shon-sharaf!"

Chog'ishtirilayotgan tillarda takror stilistik vositasi turli xil asoslangan bo'lib, ingliz tilshunoslari takrorning turlari va ularning matnda aks etishini ko'proq ilmiy asoslangan bo'lsa, o'zbek tilshunoslari ko'proq uning emotsional-ekspressiv xususiyatlarini tahlil etishgan. Bu o'rinda rus tilshunoslari takrorga stilistik usul sifatida yondashib, uning matn va diskursdagi vazifalari, xususiyatlarini tadqiq etganlar. Shuningdek, ingliz tilshunoslarining takrorga bo'lgan qarashlari ko'proq uning qanday stilistik troplar bilan aloqadorligi, turlari va funksiyalarining ilmiy tadqiqida o'z aksini topgan bo'lsa, o'zbek tilshunoslari takrorning ifodaga qay darajada hissiy ta'sir o'tkaza olishi matndagi turli funksiyalarining tahlil etilishi bilan bog'liq nazariyalar tadqiq qilingan.

Takroriy elementlarning hajmi so'z yoki murakkab sintaktik hodisa bo'lishi mumkin. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, o'zbek tilida leksik takrorlardan foydalanganda ko'proq ta'kidlash ma'nosi ifoda etilsa, ingliz tilidagi stilistik takror tinglovchini biror narsaga ishontirish yoki undash ma'nolarida ifodalaniladi. Masalan, o'zbek tilida berilgan ushbu misolda, "Vaqt hamma narsadan kuchli, deydilar. Quyosh, tovush va nur harakatini taajjublanarli tez, deydilar. Atom va vodorod quvvatini tengsiz va beqiyos qudrat, deydilar

(Vohid Zohidov), ‘deydilar’ leksik birlik orqali takror stilistik vositasining epifora turi orqali bir necha faktlar ta’kidlanmoqda. Hamda ingliz tilida berilgan ushbu misolda, takror stilistik vositasining anafora takror turidan tinglovchini ishontirish maqsadida foydalanilgan bo’lsa, epifora takror turi orqali kitob o’qishga undash ma’nosida ifodalangan: “If he wishes to float into fairyland, he reads a book; If he wishes to dash into the thick of battle, he reads a book, if he wishes to soar into heaven, he reads a book.” (Chesterton).

Jarayonlar, tuzilmalar, elementlar va motivlarning takrorlanishi umumiy muloqot, xususan, til uchun asosdir. Kontaktning ketma-ket takrorlanishi ko’plab modal ma’nolarni va insoniy his-tuyg’ularni ham ko’rsatadi va ular har ikki til tahlilida ham quyidagi holatlarni ifodalashi aniqlandi, xususan, aniqlik, shubha, zavq, sabrsizlik, tashvish, iltimos, taklif, minnatdorchilik, dahshat, g’azab, jirkanish, nafrat, jahl, kesatish va boshqalar.

Har bir daraja ichida takrorlar o’ziga xos xususiyatlariga qarab tasniflanadi. Tilda takror keng ko’lamda foydalanganligi va turli o’rinlarda kelganligi bois kichik guruhlariga bo’lgan holda o’rganiladi. Ingliz tilida takror tuzilishiga ko’ra quyidagi guruhlariga bo’linadi: Anadiplosis, anafora, epifora, xalqasimon takror (frame repetition), tizma takror (chain repetition), o’zakli takror (root repetition), sinonimik takror (synonymical repetition), antimetabola, antiteza, xiazm va antanaklaziyadir. Quyida ingliz tilida keng ko’lamda qo’llaniladigan ba’zi takror turlari va ular ifodalaydigan stilistik xususiyatlarini izohlashni joiz deb topdik.

1-jadval

№	Ingliz tilida misollar	Izoh
1	Go back to Mississippi, go back to Alabama, go back to South Caroline, go back to Georgia, go back to Louisiana, go back to the slums and ghettos of our northern cities, knowing that somehow this situation can and will be changed ~ Martin Luther King Jr.	Ushbu parchada anafora stilistik vosita ishtirok etgan bo’lib, tinglovchida qat’iy ishonch va harakatga chorlov hissini uyg’otish, berilgan ko’rsatmaga qat’iy rioya qilishga undash hamda siyosiy va motivatsional mazmunni ifodalash maqsadida qo’llanilgan.
2	<i>If he wishes to float into fairyland, he reads a book; If he wishes to dash into the thick of battle, he reads a book, if he wishes to soar into heaven, he reads a book</i> (Chesterton)	Ushbu parchada ikki turdagi stilistik vosita ishtirok etgan bo’lib, ular takror turiga mansub anafora va epiforadir. Misolda, takror stilistik vositasining anafora takror turidan tinglovchini ishontirish maqsadida foydalanilgan bo’lsa, epifora takror turi orqali kitob o’qishga undash ma’nosida ifodalangan.

Chog’ishtirilayotgan tillarda takror va uning turlari keng ko’lamda qo’llaniladi. Ingliz tilidan farqli ravishda takror turlarini aniqlash maqsadida quyida o’zbek tilidagi mavjud

takrorlar tasnifiga to'xtalib o'tamiz. Tilimizda quyidagi takror turlari keng ko'lamda qo'llaniladi: anafora, infora, epifora, alliteratsiya, anadiplosis, xalqasimon takror.

2-jadval

O'zbek tilida misollar	Izoh
<i>U alla aytmasa, tonglar otmaydi,</i> <i>U alla aytmasa, quyosh botmaydi.</i> <i>U alla aytmasa, dillarning g'ashin,</i> <i>Kulgular yuvmaydi va yo'qotmaydi.</i> (Saida Zunnunova)	Anafora stilistik figurasidan his-hayajon, ko'tarinki ruh bilan aytiladigan nutq shaklni yaratish uchun foydalanilgan hamda o'zbeklarga xos Ona timsoli gavdalanitirilgan.
<i>O'n sakkizga kirmagan kim bor,</i> <i>Bog'ingdan gul termagan kim bor.</i> <i>Sen xaqingda yozib to'rt satr,</i> <i>Sirdoshiga asta ko'rsatib,</i> <i>Qo'shni qizga bermagan kim bor.</i> (E.Vohidov, "Sevgi"1959)	Asarga yorqin stilistik rang berish uchun epifora qo'llanilgan. Jumlaning oxirgi so'zlarini takrorlaydigan epifora ta'sirchan intonatsiyani kuchaytirgan. Retorik takror orqali yozuvchi muhabbat tuyg'usini implitsit tasvirlash orqali ifodalagan.

Demak, chog'ishtirilgan tillarning har birida ifodalanuvchi takror va uning turlari har ikkala til uchun xos bo'lib, takror ingliz va o'zbek tillarida fonetik, leksik, morfologik va sintaktik belgilar orqali ifodalaniladi. Ishimizning yangiligi sifatida aytib o'tish lozimki, o'zbek tilida takror turlari tizimli ravishda shakllantirilmaganligi bois kuzatishlarimiz davomida eng ko'p qo'llaniladigan takrorlarni guruhlariga birlashtirdik.

XULOSA

Xulosa sifatida aytishimiz joizki, takror stilistik vositasi ko'proq qo'shma gaplar tarkibida kelishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi hamda aniqlik, shubha, zavq, sabrsizlik, tashvish, iltimos, taklif, minnatdorchilik, dahshat, g'azab, jirkanish, nafrat, jahl, kesatish va boshqa munosabatlarni ifoda etadi. Chog'ishtirilayotgan tillarda nutqning ta'sirchanligini oshirishga yordam beradi, shuningdek, so'z ritmini yanada kuchaytirish va tinglovchi e'tiborini aniq ifoda etilayotgan fikrga qaratish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Ilyish B.A. The Structure of Modern English. – M.: Prosveshcheniye, 1914.
2. Kirvolidze N. Theoretical course English language. – Tbilisi, 1984. – P. 17.
3. Пешковский А.М. Русский синтаксис в научном освещении. – М., 1956. – С. 405.
4. Сайфуллаева Р. Ҳозирги ўзбек адабий тили формал-функционал талқинида қўшма гап. – Тошкент, 1993. – Б. 34-42; Шу муаллиф. Ҳозирги ўзбек адабий тилида қўшма гапларнинг шакл-вазифавий (формал-функционал) талқини // Филол. фан. д-ри ... дис. автореф. – Тошкент, 1993. – Б. 34-41.



5. Ғозиев Н. Ҳозирги замон ўзбек тилида эргаш гапларнинг состави. – Тошкент, 1998.
6. Юсупов Ў. Инглиз тили грамматикасидан универсал қўлланма. – Т., 1997 – Б. 14.
7. <https://studfile.net/preview/2780409/>